ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIK MEZONLARI

Mustaqil tadqiqodchi: Botaxanov D.X.

Qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatining samaradorligi deganda iqtisodiy adabiyotda ushbu korxonalar faoliyatidan olingan samara bilan qilingan xarajat o‘rtasidagi nisbat tushuniladi.

Qishloq xo‘jalik korxonalari faoliyati samaradorligining quyidagi shakllari mavjud:

1. Iqtisodiy samara.
2. Ilmiy-texnik samara.
3. Ijtimoiy samara.
4. Ekologik samara.

Iqtisodiy samara quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

*korxona faoliyati natijasida olingan foyda miqdori;
*mahsulotlarni sotish hajmining oshishi;
*tannarxning mahsulotlarni sotishdan olingan tushum hajmidagi salmog‘ining pasayishi;
*investitsiyalarni qoplash muddatini qisqarishi;
*resurslardan foydalanish darajasining yaxshilanishi;
*mehnat unumdorligining oshishi;
*aylanma mablag‘larning aylanish tezligining oshishi.

Ilmiy-texnik samara quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

*yangi ishlanmalarga mualliflik guvohnomalari sonining oshishi;
*yangi texnologiyalarning salmog‘ini oshishi;
*ishlab chiqarishni avtomatlashtirish darajasini oshishi;
*ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilish darajasini oshishi;
*kompaniyaning raqobatbardoshligini oshishi.

Ijtimoiy samara quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

*kompaniya xodimlarining daromadlari miqdorining oshishi;
*mehnat xavfsizligi darajasining oshishi;
*ish o‘rinlarini ko‘payishi;
*mehnat sharoitlarini yaxshilanishi;
*xodimlarning umrini uzayishi;
*xodimlarni kasallanish darajasini kamayishi.

Ekologik samara quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

*atmosferaga, tuproqqa, suvga zararli chiqindilarni tashlashning kamayishi;
*ishlab chiqarish chiqindilarining kamayishi;
*ekologik qonunchilikni buzganligi uchun qo‘llaniladigan jarimalar miqdorining kamayishi;
*mahsulotlardagi shovqinni kamayishi yoki yo‘qolishi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarining iqtisodiy samaradorligini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, mehnat unumdorligi ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Mehnat unumdorligi deganda, odatda, vaqt birligi ichida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori tushuniladi. Qishloq xo‘jalik korxonalarining mehnat unumdorligi deganda ma’lum vaqt mobaynida, masalan, bir oy yoki bir yil ichida ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdori tushuniladi.

Qishloq xo‘jalik korxonalarining iqtisodiy samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarning ikkinchi guruhini likvidlilik va moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari tashkil etadi.

Likvidlilik ko‘rsatkichlari:

1. Mutlaq likvidlilik koeffitsiyenti:

(PM + QMMQ) : JP

Bu yerda:

PM – pul mablag‘lari

QMMQ – qisqa muddatli moliyaviy quyilmalar

JP – joriy passivlar

Ushbu ko‘rsatkich 0,2 dan 0,5 gacha oraliqda bo‘lishi kerak.

Qishloq xo‘jalik korxonalarining qisqa muddatli majburiyatlarning tarkibi:

* Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar oldidagi kreditor qarzdorlik
* Sho‘ba korxonalar oldidagi qarzdorlik
* Kechiktirilgan daromadlar
* Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha kechiktirilgan majburiyatlar
* Olingan bo‘naklar (avans)
* Byudjet oldidagi qarzdorlik
* Qisqa muddatli bank kreditlari bo‘yicha qarzdorlik
* Sug‘urtalash bo‘yicha qarzdorlik
* Qisqa muddatli qarzlar
* Mehnat haqi bo‘yicha qarzdorlik

2. Joriy likvidlilik koeffitsiyenti:

Joriy aktivlar: Joriy passivlar

Ushbu ko‘rsatkich kamida 1,25 ga teng bo‘lishi kerak.

Qishloq xo‘jalik korxonalarining joriy aktivlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

* Tovar-moddiy zaxiralar
* Kelgusi davr xarajatlari
* Kechiktirilgan xarajatlar
* Qisqa muddatli debitor qarzdorlik
* Pul mablag‘lari
* Qisqa muddatli investitsiyalar

3. Muddatli likvidlilik koeffitsiyenti:

(PM +QMMQ+DQ) : JP

Bu yerda:

PM – pul mablag‘lari

QMMQ – qisqa muddatli moliyaviy quyilmalar

DQ – debitor qarzdorlik

JP – joriy passivlar

Ushbu ko‘rsatkich 0,7 dan 1,0 gacha oraliqda bo‘lishi kerak.

Qishloq xo‘jalik korxonalarining moliyaviy barqarorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar:

1. Moliyaviy muxtorlik koeffitsiyenti:

Kapital : (Kapital + Jalb qilingan mablag‘lar)

Ushbu ko‘rsatkich 0,5 ga teng bo‘lsa va undan yuqori bo‘lsa yaxshi.
2. Jalb qilingan mablag‘lar tarkibi koeffitsiyenti:

QMQ : JQM
Bu yerda:
QIQ - qisqa muddatli qarzdorlik
JQM - Jalb qilingan mablag‘lar
Ushbu ko‘rsatkich 1 ga qanchalik yaqin bo‘lsa, shuncha yaxshi hisoblanadi.
3. Moliyaviy leveraj koeffitsiyenti:

AO‘S : KO‘S
Bu yerda:
AO‘S – aktivlarning o‘rtacha summasi
KO‘S – kapitalning o‘rtacha summasi
3. Moliyaviy marja koeffitsiyenti:
Kreditlar : (Aktivlar – Qarz majburiyatlari)
Ushbu ko‘rsatkichning eng yuqori me’yoriy darajasi 1 ga teng.
Qishloq xo‘jalik korxonalarining umumiy pul oqimini aniqlash formulasi:

UPO = PMK – PMCH
Bu yerda:
UPO – umumiy pul oqimi
PMK – pul mablag‘lari kirimi
PMCH – pul mablag‘lari chiqimi
Pul mablag‘larining kirim elementlari:
– tahlil qilinayotgan davr mobaynida olingan foyda;
– asosiy vositalarga hisoblangan amortizatsiya ajratmalari;
– debitor qarzdorlik va tovar-moddiy zaxiralariga joylangan mablag‘larning bo‘shab qolishi;
– kreditor qarzdorlik miqdorining ko‘payishi;
– tijorat banklaridan kreditlar olish;
– aksiyadorlik kapitali va boshqa passivlar summasining oshishi;
– moliyaviy grantlar jalb qilish.
Pul mablag‘larining chiqim elementlari:
– debitor qarzdorlik va tovar-moddiy zaxiralarga qo‘shimcha mablag‘lar joylashtirish;
– soliqlar, foizlar, dividendlar, bo‘naklar to‘lash;
– penya va jarimalar to‘lash;
– banklardan olingan kreditlarni to‘lash;
– tijorat kreditlari bo‘yicha asosiy qarz summasi va foizlarni to‘lash;
– kreditor qarzdorlik miqdorining kamayishi;
– aksiyadorlik kapitali summasining kamayishi.

Adabiyotlar

1. Грязнова А.Г. Экономическая теория национальной экономики и мирового хозяйства. М: ЮНИТИ,1998. – 328 с.
2. Тяпкин Н.Т., Панина Н.А. Критерии и показатели оценки эффективности использования ресурсов в сельском хозяйстве//Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий. – Москва, 2005. - № 3. - С. 14-16.
3. Усольцев И.В. Повышение устойчивости сельскохозяйственного развития на основе диверсификации. Автореф. дисс. на соиск. уч. ст. к.э.н. – Москва, 2013. – 23 с.
4. Yusupov M.S. Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarinii takomillashtirish. PhD. Diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 56 b.
5. Шохъазамий Ш.Ш. Методологические основы и приоритеты стратегического развития рынка ценных бумаг в Узбекистане. Автореф. дисс. на соиск. уч. ст. д.э.н. – Ташкент, 2011. – 39 с.
6. Shodmonov E.Sh. O‘zbekistonda agrar islohotlarni chuqurlashtirishda banklar faolligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari. Iqt. f.n. ilm. darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent: BMA, 2005. – 22 b.